INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
07.00.00 – TARIX FANLARI

XIVA XONLIGIDA XVIII-XIX ASRLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Ibodullayeva Oymarjon Shavkat qizi,
Ma'mun universiteti tarix yo'nalishi talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20603691

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning asosiy jihatlari, uning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Aholining ijtimoiy tarkibi, tabaqalanish jarayonlari, yer egaligi tizimi va soliq siyosati yoritiladi. Shuningdek, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning iqtisodiy hayotdagi o'rni hamda ularning o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Maqolada ichki va tashqi savdoning rivoji, bozorlardagi iqtisodiy munosabatlar va davlat boshqaruvining iqtisodiyotga ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Xiva xonligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ijtimoiy tabaqalanish, yer egaligi, soliq tizimi, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ichki savdo, tashqi savdo, iqtisodiy munosabatlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются основные аспекты социально-экономической жизни Хивинского ханства, а также особенности её формирования и развития. Рассматриваются социальная структура населения, процессы социальной дифференциации, система землевладения и налоговая политика. Кроме того, освещается роль земледелия, животноводства, ремесленничества и торговли в экономической жизни, а также их взаимосвязь. На основе исторических источников анализируются развитие внутренней и внешней торговли, экономические отношения на рынках и влияние государственного управления на экономику.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, социально-экономическая жизнь, социальная дифференциация, землевладение, налоговая система, земледелие, животноводство, ремесленничество, торговля, внутренняя торговля, внешняя торговля, экономические отношения.*

Abstract. *This article analyzes the main aspects of socio-economic life in the Khiva Khanate, as well as its formation and development features. It examines the social structure of the population, processes of stratification, the land ownership system, and tax policy. In addition, the role of agriculture, animal husbandry, handicrafts, and trade in the economic life and their interconnection are discussed. The development of domestic and foreign trade, economic relations in markets, and the impact of state governance on the economy are analyzed based on historical sources.*

Keywords: *Khiva Khanate, socio-economic life, social stratification, land ownership, tax system, agriculture, animal husbandry, handicrafts, trade, domestic trade, foreign trade, economic relations.*

Kirish. Hunarmandchilik tarmoqlarining rivojlanishida Xorazmdagi rivojlangan sug‘orma dehqonchilikning ham ta’siri kuchli bo‘lgan. O‘rta asrlarlarda vohada 1,8 mln. Ga (gektar) yer maydoni sug‘orma dehqonchilik bilan band bo‘lgan[1].

Xorazmda asrlar davomida takomillashgan va rivojlangan hunarmandchilik an’analari, keyingi asrlarda hokimiyat tepasiga kelgan sulolalar hukmronligi davrida ham davom ettirildi. Markazlashgan davlatning salohiyati kuchli bo‘lgan davrlarda iqtisodiy hayot va uning asosiy tayanchlaridan biri hisoblangan hunarmandchilik rivojlangan, markaziy hokimiyatning mamlakatni boshqaruv qobiliyati susaygan davrlarda esa buning aksi yuz bergan. XVIII asr o‘rtalarida mamlakatda kechayotgan siyosiy tarqoqlik, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, urug‘larning o‘zaro ichki nizolari, ko‘chmanchi aholi bilan o‘troq aholi o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, shuningdek, tashqi dushman Eron shohi Nodirning yurishlari natijasida iqtisodiy hayot izdan chiqqan edi.

Tadqiqot metodologiyasi: Xiva xonligi siyosiy maydonida XVIII asrning 60-yillaridan boshlab qo‘ng‘irot urug‘ining rahnamosi Muhammad Amin inoqning nufuzi ortib borgan va mahalliy zadagonlar, din peshvolari madadiga tayangan Muhammad Amin mamlakatni birlashtirishda ko‘p sa’y-harakatlarni amalga oshirdi. Biroq, XVIII asr oxirigacha Xiva xonligida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda mavjud bo‘lgan va asta-sekinlik bilan bartaraf etib borilgan inqiroz, hunarmandchilik holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Xonlik taxtiga Qo‘ng‘irotlar sulolasi vakillarining kelishi mamlakat ichki hayotining tartibga solish, ichki tranzit va tashqi savdo aloqalarining rivojlantirilishi borasidagi sa’y harakatlari turli hunarmandchilik sohalarining faollashuviga sharoit yaratdi. An’anaviy hunar turlari o‘z taraqqiyotida davom etdi va aholining kiyim-bosh, oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kundalik turmushda asqotadigan anjomlar, mehnat qurollari va boshqalar bilan ta’minlovchi asosiy ishlab chiqarish sohalari vazifasini o‘tayverdi.

1815 – 1816 yillarda yasalgan Xiva xoni taxti metallga ishlov berish sohasining nodir namunasi hisoblanadi[2]. Taxt yog‘ochdan ishlanib, sirtiga yupqa kumush bilan qoplangan va islimiy naqshlar o‘yilib, sayqal berilgan. Taxtni tavsif etgan olim V.V.Stasov shunday yozadi: “Taxtning hamma joyi O‘rta Osiyodagi gul va o‘simliklarni o‘zida namoyon etuvchi juda chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Bu taxt Xiva ustalarining mahorat cho‘qqisi, ya’ni metalga gul solish san’atining betakror mahsulidir”[3].

Xiva xonligida zargarlik sohasi ham ancha yaxshi rivojlangan. Mahalliy zargarlar feruza, marjon, marvarid, la’l, zumrad, rangli shisha, yoqut, oltin va kumushga ishlov berish orqali turli buyumlarni yasaganlar. Zargarlar tomonidan tayyorlangan kumush buyumlar keng qo‘llanilib, undan nafaqat to‘lov vositasi bo‘lgan pul birliklari – tangalar, balki qimmatbaho zeb-ziynat buyumlari, balki idish-tovoqlar, qurol-yaroqlarning bezak

qismlari, pichoqlar uchun dastaklar, tugmalar va shu kabi buyumlar tayyorlangan. XIX asrda yuz bergan migratsion jarayonlar natijasida xonlikka ko‘chib kelgan turli xalqlar vakillari o‘zlari bilan yangi hunar turlarini olib kelganlar. Ulardan biri xonlikka XIX asrning ikkinchi yarmida kelib joylashgan nemismenonitlari bo‘lib, ular To‘rtko‘lda va Xivaning Oq masjid qavmida yashaganlar. Ular asosan duradgorlik qilib, mahalliy aholi turmushida yangi jihozlar stol, stul, javonlar, g‘aladonlar (tumbochka), undan tashqari furgon (g‘altak aravalar), duradgorlik asboblarini ham yasaganlar[4].

Xivada XIX asr o‘rtalaridayoq o‘z ishining ustasi sifatida tanilgan, marmar o‘ymakor ustalardan biri Xudoybergan Muxrkan (1817-1914) xonlik hunarmandchilik tarixida katta iz qoldirgan. Marmardan ishlangan ayrim buyumlarning eng pastiga Xudoybergan Muhrkan ustaning shaxsiy muhri qo‘yilgan[5]

Natijalar va muhokama. Xorazmdagi bu kabi saroylarning umumiy xususiyatlari shundaki, ularning barchasi paxsa va pishiq g‘ishtdan tiklangan, peshtoq, guldasta, ayvon kabi me’moriy qismlardan iborat. Saroylarda Arz hovli, ko‘rinishxona, Ishrat hovli, masjid, haram kabi zallardan, yo‘lak, qo‘shimcha xonalar bo‘lgan. Saroylarning o‘lchamlari har xil, hovli, zal va xonalar soni ham turlicha bo‘lgan. Xorazmda naqqoshlik san’ati ham ancha yuksalgan. Naqqoshlar tomonidan islimi naqsh tuzilishida novda, marg‘ula, barg, no‘xatgul, oddiy oygul keng o‘rin egallaydi. Bu islimiy naqshlar boshqalardan dinamikaviyligi bilan farq qiladi. Xorazmda ko‘pincha yulduz hosil qiluvchi girehlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islimi naqsh tushiriladi. Xorazm naqshlari madohil (arabcha - ostona, kirish eshigi) naqshlar asosida tuziladi.

Naqqoshlar kasb sirlarini egallashlari bilan birga tarih, she’riyat, musiqani yaxshi bilganlar. Xorazm naqqoshlaridan Matkarim naqqosh Ne’matullaev, Matpano Hudoyberganov, Abdulla Jin, Mirzo usta, Otajon Madrayimov, Ro‘zmat Masharipov, Abdulla Boltayev, Odamboy Yoqubov, Odamboy Bobojonov, Eshmurod Sapaev, Rahimbardi Matchonov va boshqalar o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirganlar. Islimiy (o‘simliksimon) naqshlarga: rapida, turg‘uncha, panjara, g‘uncha, murchgul, madohil, qo‘chqorshox, tojigul va boshqalar mavjud bo‘lib, naqshlarni to‘ldiruvchi “yaproqlar” shaklidagi bezaklarning Xivada 137 turi mavjud bo‘lgan[8]. Gireh (geometrik) naqshlarga: yulduz, bo‘g‘irsoq, o‘q-yoy va boshqalar kiradi. Yog‘och o‘ymakorligi namunalari so‘nggi o‘rta asrlarda deyarli har bir xonadonda mavjud bo‘lgan. Eng kambag‘al kishilar ham ustun va eshiklarni o‘ymakor qilib ishlatishgan.

Hozirda “Ichon qal’a” turar joylarida ham o‘ymakor eshiklar ko‘p uchraydi. Xiva shahri yodgorliklaridagi o‘yma naqshli eshik, darvoza, o‘ra (ustun) va o‘ra tosh (ustun tagi) lardagi naqshlarni tahlil qilib qaralsa, ularning naqshlaridan qaysi yuz yillikka mansub ekanligini bilish mumkin. Xiva naqshlarining soni yuzdan ziyod bo‘lib, ular ichida eng chiroyli naqsh ikki qatlam, ba’zan uch qatlam qilib bajariladi. Xiva ustalari

hech qachon bir naqshni ikkinchi marta takrorlashmagan va boshqa ustadan nusxa olmaganlar.

XX asrning 20 - yillariga kelib sho‘rolar hokimiyati tashkil topishi bilan hunarmandchilikning asosiy qismi dastlab artellarga, keyinchalik, zavod fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga jalb qilindi. Ularga xom–ashyo, materiallar, asbob–uskunalar davlat tomonidan yetkazib beriladigan, yaratilgan mahsulotlar esa, do‘konlarda sotiladigan bo‘ldi. Iste’dodli hunarmandlar ijodiy tashkilotlarga qabul qilindi, amaliy bezak san’ati rivojlantirildi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu bo‘limga quyidagilarni xulosa qilish mumkin: Xorazm qadimdan turli hunarmandchilik sohalari rivojlangan hudud hisoblanib, bu yerda mahalliy hunarmandlar aholining turmush tarzi va ehtiyojlariga mos ravishda asrlar davomida shakllangan an’analar asosida o‘z mahsulotlarini yaratganlar. Bu mahsulotlar bilan ichki va tashqi bozorda qizg‘in savdo amalga oshirilgan. Bu esa, davlat iqtisodiy salohiyatining oshishiga xizmat qilgan; XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida siyosiy hayot barobarida iqtisodiy hayot ham izga tushib, uning turli sohalari qatorida hunarmandchilik ham rivojlana boshlagan va o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. XVIII asr o‘rtalarida mamlakatda kuzatilgan siyosiy va iqtisodiy hayot inqirozi natijasida tanazzulga uchragan hunar turlari XIX asr boshlariga kelib qayta tiklangan, mahsulotiga talab pasaygan hunar turlari o‘z ahamiyatini yo‘qota borgan, yangi hunar turlari urf bo‘la boshlagan. Xonlikda 100 dan ortiq hunar turlari mavjud bo‘lib, ularga bevosita tayyor mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va o‘z faoliyati orqali hunarmandlarni savdo ahli bilan bog‘lagan kasb-hunar egalarini kiritish mumkin. Ularning faoliyati uzviy aloqadorlikda kechib, Xiva iqtisodiy hayotining rivojiga samarali ta‘sir ko‘rsatgan; mamlakatning qo‘shni davlatlar bilan xorijiy davlatlar bilan savdo va iqtisodiy aloqalari yangi asosda davom ettirilgan. Ularning natijasida yuz bergan emigratsion va migratsion jarayonlar faollashib, xonlik hududida kelib o‘rnashgan turli xalqlar vakillari orqali mahalliy aholi yangi hunar turlari va mahsulot ishlab chiqarish usullari bilan tanishganlar. Natijada an’anaviy Xiva hunarmandchiligi boyib borgan va transformatsion jarayonlarga uchragan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиши тарихи … – Б. 81-83.
2. История Хорезма с древнейших времен до наших дней... – С. 115. 62 Стасов В.В.
3. Дженкинсон Антонио. Путешествие в Среднюю Азию в 1558-1559 гг…– С. 178.
4. Отажонов М. Хоразм хонлиги тарихига оид материаллардин. ЎзР ФА ШИ №11664/ II– 38а варақ.; Гиршфелд В.А., Галкин А. С. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса… Ч. II. – С. 82-83; Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанскаго военного округа. Хивинский район. – Ташкент, 1912. – С. 49.

5. Ичан қалъа музей қўриқхонаси фонди. ГХ М3 КП 1192 инв. 22 мармар
6. Bog‘bekov H. Memorchilik obidalari qurilishida Xiva naqqoshlik san'atining ahamiyati. “Xorazm tarixiy - madaniy yodgorliklari: holati, ta'mirlash va foydalanish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy semenari materiallari. - Xiva, 2003 yil. – Б. 23.